Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

TIJORAT BANKLARIDA MUROBAḤA ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHNI JORIY ETISH MODELI (O‘ZBEKISTON TAJRIBASI MISOLIDA)

Atanazarova Gullola Muhamatiso qizi
O’zbekiston Xalqaro Islomshunoslik Akademiyasi
1 – bosqich magistratura talabasi
atanazarova-2017@mail.ru
Ilmiy raxbar: **R. Abdullayev**
https://doi.org/10.5281/zenodo.20613628

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda islom moliyasining o‘rni, xususan murobaḥa asosidagi moliyalashtirish mexanizmlarini tijorat banklari faoliyatiga joriy etish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda murobaḥaning nazariy asoslari, uning an’anaviy kreditlash tizimidan farqli jihatlari hamda O‘zbekiston bank tizimida qo‘llash imkoniyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, mamlakatda islomiy moliyaga bo‘lgan talab, tegishli normativ-huquqiy asoslar va tijorat banklari tomonidan amalga oshirilayotgan dastlabki tashabbuslar ko‘rib chiqilgan. Muallif tomonidan murobaḥa asosida moliyalashtirishning amaliy modeli ishlab chiqilib, uning bosqichlari va iqtisodiy samaradorligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida tijorat banklarida murobaḥa mexanizmini joriy etishning afzalliklari, mavjud muammolari va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so’zlar: murobaḥa, islom moliyasi, tijorat banklari, moliyalashtirish modeli, foizsiz bank tizimi, shariat tamoyillari, bank amaliyoti, O‘zbekiston bank tizimi, islomiy bank xizmatlari, moliyaviy instrumentlar, iqtisodiy samaradorlik

Kirish

So‘nggi yillarda Islomiy moliya tizimiga bo‘lgan qiziqish global miqyosda sezilarli darajada ortib bormoqda. Bu jarayon O‘zbekiston uchun ham dolzarb bo‘lib, aholining muayyan qismi foizsiz moliyaviy xizmatlarga ehtiyoj sezmoqda. Ayniqsa, shariat tamoyillariga asoslangan moliyalashtirish instrumentlariga talab ortib borayotgani kuzatilmoqda.

O‘zbekistonda islom moliyasini joriy etish bo‘yicha muhim qadamlardan biri sifatida 2026-yil mart oyida O’zbekiston respublikasi prezidenti tomonidan 1126-sonli qarorning imzolanishi ushbu yo‘nalishning institutsional rivojlanishiga turtki berdi. Mazkur qaror mamlakatda islom moliyasi mexanizmlarini, jumladan, murobaḥa asosidagi moliyalashtirishni joriy etish uchun huquqiy va tashkiliy asoslarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda tijorat banklari tomonidan islom moliya instrumentlarini sinovdan o‘tkazish va joriy qilish bo‘yicha dastlabki qadamlar tashlanmoqda. Xususan, bu borada ilk tashabbuskor sifatida Hamkorbank faoliyat olib borgan bo‘lsa, keyinchalik BRB Bank, Agrobank, Ziraat Bank Uzbekistan, Trastbank hamda Hayot bank kabi banklar tomonidan ham ushbu yo‘nalishda amaliy harakatlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi — tijorat banklarida Murabaha asosida moliyalashtirishni joriy etishning samarali modelini ishlab chiqish va uni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Murobaḥaning nazariy asoslari

Murobaḥa islom moliyasi tizimida keng qo‘llaniladigan shartnomalardan biri bo‘lib, unda sotuvchi (bank) tovarni xarid qiladi va uni xaridorga ustama (foyda) qo‘shgan holda sotadi. Ushbu jarayonda asosiy tamoyil — shaffoflik va halollik bo‘lib, bank tomonidan qo‘yilgan ustama mijozga oldindan ma’lum qilinadi.

Murobaḥaning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

✓ real aktivga asoslanganlik;

✓ foiz (ribo) ning mavjud emasligi;

✓ foydaning ochiq va kelishilgan bo‘lishi.

An’anaviy kredit tizimidan farqli ravishda, murobaḥada pul emas, balki tovar asosiy obyekt sifatida ishtirok etadi. Bu esa moliyaviy operatsiyalarning real iqtisodiyot bilan bog‘liqligini ta’minlaydi.

O‘zbekistonda murobaḥaning joriy etilish holati

O‘zbekistonda islom moliya tizimi hali to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, unga bo‘lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Aholining ma’lum qismi foizsiz moliyalashtirishga intilishi, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish zarurati ushbu yo‘nalishni rivojlantirishni talab etmoqda.

Markaziy bank tomonidan ham islom moliya instrumentlarini joriy etish bo‘yicha ilmiy-amaliy ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, tijorat banklari tomonidan murobaḥa asosidagi mahsulotlarni pilot loyiha sifatida sinovdan o‘tkazish holatlari mavjud.

Biroq, hozirda quyidagi muammolar mavjud:

✓ huquqiy bazaning yetarli darajada rivojlanmaganligi;

✓ soliq tizimining moslashmaganligi;

✓ mutaxassis kadrlar yetishmasligi.

Tijorat banklarida murobaḥa modelini joriy etish

Model ishtirokchilari

Taklif etilayotgan model uch asosiy subyektni o‘z ichiga oladi:

1) tijorat banki;

2) mijoz;

3) yetkazib beruvchi (sotuvchi).

Jarayon bosqichlari

1. Mijoz bankka murojaat qilib, ma’lum bir tovarni xarid qilish istagini bildiradi.

2. Bank ushbu tovarni yetkazib beruvchidan sotib oladi.

3. Bank tovarni mijozga ustama (o’z foydasini) qo‘shgan holda murobaḥa shartnomasi asosida sotadi.

4. Mijoz to‘lovni kelishilgan muddat davomida bo‘lib-bo‘lib amalga oshiradi.



Amaliy misol ko’rinishida

Quyidagi misolda murobaḥa operatsiyasining ishlash mexanizmi ko‘rsatiladi:

- Tovar (avtomobil) narxi: 100 mln so‘m
- Bank ustamasi: 20/100
- Yakuniy sotuv narxi: 120 mln so‘m
- To‘lov muddati: 12 oy

Bu holatda mijoz har oy 10 mln so‘mdan to‘lab boradi. Ushbu modelda bankning foydasi aniq va oldindan kelishilgan bo‘ladi.

Modelning afzalliklari

Birinchidan, mazkur model foizsiz moliyalashtirish imkoniyatini ta’minlaydi. An’anaviy bank kreditlarida asosiy daromad manbai foiz hisoblanadi, murobaḥada esa bank foydasi tovar narxiga qo‘shilgan ustama orqali shakllanadi. Bu esa shariat tamoyillariga rioya qiluvchi mijozlar uchun muqobil moliyaviy instrument sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Natijada, bank xizmatlaridan foydalanmayotgan aholi qatlamini ham moliyaviy tizimga jalb qilish imkoniyati kengayadi.

Ikkinchidan, murobaḥa modeli shaffof va tushunarli mexanizmga ega. Bitim jarayonida tovarning asl narxi va bank qo‘shgan ustama miqdori mijozga oldindan ma’lum qilinadi. Bu esa moliyaviy operatsiyalarda noaniqlik va yashirin to‘lovlar ehtimolini kamaytiradi. Shaffoflik darajasining yuqoriligi mijoz va bank o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, mazkur model real aktivlarga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Murobaḥa operatsiyalarida moliyalashtirish aniq bir tovar yoki xizmat bilan bog‘liq bo‘lib, bu spekulyativ operatsiyalarni cheklaydi va moliyaviy resurslarning real iqtisodiyotga yo‘naltirilishini ta’minlaydi. Natijada iqtisodiyotning ishlab chiqarish va savdo sohalari qo‘llab-quvvatlanadi.

To‘rtinchidan, ushbu model aholi ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Foizsiz va shaffof moliyalashtirish mexanizmi aholining bank tizimiga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi.

Ayniqsa, diniy e'tiqod sababli an'anaviy kreditlardan foydalanmayotgan mijozlar uchun murobaḥa muhim moliyaviy yechim hisoblanadi. Bu esa moliyaviy inklyuziya darajasining oshishiga olib keladi.

Shuningdek, murobaḥa modeli tijorat banklari uchun ham foydali bo'lib, ular o'z mahsulot portfelini kengaytirish, yangi mijozlar segmentini jalb qilish va raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Mavjud muammolar va cheklovlar

Murobaḥa asosidagi moliyalashtirish modelini tijorat banklari faoliyatiga joriy etish jarayonida bir qator tizimli va amaliy muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu muammolarni bartaraf etmasdan turib modelni keng miqyosda tatbiq etish murakkab hisoblanadi. Masalan

Murobaḥa operatsiyalarida ikki martalik soliqqa tortilish ehtimoli mavjud. Chunki ushbu modelda bank avval tovarni sotib oladi, so'ngra uni mijozga qayta sotadi. Amaldagi soliq tizimida har ikkala operatsiya alohida savdo sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Bu esa qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) yoki boshqa soliqlar ikki marta hisoblanishiga olib kelib, mahsulot yakuniy narxining oshishiga sabab bo'ladi. Natijada murobaḥa an'anaviy kreditga nisbatan qimmatroq ko'rinishi mumkin.

Tijorat banklari uchun likvidlik risklari yuzaga kelishi mumkin. An'anaviy kreditlashda bank pul mablag'larini bevosita mijozga ajratadi, murobaḥada esa bank avval tovarni sotib olish uchun o'z mablag'larini ishlatadi. Bu jarayonda bankning likvid aktivlari vaqtincha "muzlatib qo'yilishi" mumkin. Agar mijoz to'lovlarni kechiktirsa yoki to'lamasa, bank qo'shimcha moliyaviy bosimga duch keladi.

Shuningdek, yuqoridagi muammolarga qo'shimcha ravishda, malakali mutaxassislar yetishmasligi, mijozlar orasida islom moliyasi instrumentlari haqida yetarli bilimning mavjud emasligi ham murobaḥa modelini keng joriy etishga to'sqinlik qiluvchi omillar qatoriga kiradi.

Takliflar va xulosalar

Maqola Murobaḥa modelini samarali joriy etish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Birinchi navbatda islom moliya instrumentlarini tartibga soluvchi maxsus huquqiy bazani shakllantirish lozim. Shuningdek, soliq tizimini murobaḥa operatsiyalariga moslashtirish orqali ikki martalik soliqqa tortilish holatlarini bartaraf etish muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, tijorat banklarida islom moliyasi xizmatlarini ko'rsatish uchun "islomiy darcha" (Islamic window) tizimini joriy etish hamda malakali kadrlarni tayyorlash zarur. Pilot loyihalarni kengaytirish va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali murobaḥa modelini amaliyotga samarali tatbiq etish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, murobaḥa asosidagi moliyalashtirish modeli O'zbekiston bank tizimi uchun istiqbolli yo'nalish bo'lib, uni bosqichma-bosqich joriy etish moliyaviy inklyuziyani oshirish va iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.natijalariga ko'ra quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islamic Finance / Mufti Muhammad Taqi Usmani. — Karachi: Maktaba Ma'ariful Qur'an, 2002.
2. An Introduction to Islamic Finance / M. T. Usmani. — Hague: Kluwer Law International, 1998.
3. Mukhitdinova M.Z. "The Legal and Regulatory Framework for Murabaha" // American Journal of Business Management, Economics and Banking. — 2023. — Vol. 19. — P. 142–152.

4. Yo‘ldoshbekov A.A. “Applying the Murabaha Contract in Uzbekistan for Purchasing Housing: Legal and Financial Aspects of Islamic Mortgage” // World Bulletin of Management and Law. — 2025.
5. Jiyanova N.E., Abdumannopova Sh.O. “Islamic Finance in the Context of Global Transformations: Challenges and Opportunities for Uzbekistan” // Innovation Science and Technology Journal. — 2025.
6. Shomansurova Z., Abdumannopova Sh. “Structural Dynamics of Islamic Microfinance within Uzbekistan’s Dualistic Financial System” // Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. — 2026.
7. Isroilov O.O. “Analysis of The Economic Efficiency of Financing Business Projects Through Instruments of Islamic Finance (Murabaha, Musharaka, Ijara)” // American Journal of Economics and Business Management. — 2025.
8. Rakhimov Sh.F. “Prospects for Introducing Islamic Banking Products in Commercial Banks of Uzbekistan” // International Journal of Artificial Intelligence. — 2026. — P. 277–279.
9. Sa’dullayeva G.U., Jumayev J.Sh. “Issues of Introducing Islamic Finance Services in Uzbekistan” // ACUMEN: International Journal of Multidisciplinary Research. — 2025. — P. 74–77.
10. BRB Bank — Islamic financing “Murabaha”
11. Taiba Finance — Islomiy moliyalash: Murabaha
12. Taiba Finance — About Islamic Financing
13. Malik A., Ullah K., Ullah S. “Knowledge Diffusion Process & Common Islamic Banking Governance Principles” // arXiv. — 2020.
14. Kato T. “Islamic and Capitalist Economies: Comparison Using Econophysics Models of Wealth Exchange and Redistribution” // arXiv. — 2022.